

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 78:37.064.2:17

**YOSHLAR G'OYAVIY BIRDAMLIK FAZILATLARINI YUKSALTIRISH INTEGRACIYASIDA
MUSIQIY MEROSNING O'RNI****РОЛЬ МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ИНТЕГРАЦИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ
СОЦИАЛЬНЫХ ДОБРОДЕТЕЛЕЙ МОЛОДЕЖИ****THE ROLE OF MUSICAL HERITAGE IN THE INTEGRATION OF YOUTH'S INTELLECTUAL
SOCIAL VIRTUES****Orziboyev Rustamjon** 

Farg'ona davlat universiteti pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarda g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rnini falsafiy jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birga yoshlarda g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyada Markaziy Osiyo mutafakkirlari musiqaga oid asarlaridan oqilona foydalanish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Аннотация

В данной статье с философской точки зрения анализируется роль музыкального наследия в интегративном совершенствовании качеств идейного единства у молодежи. В то же время будут показаны пути рационального использования музыкальных произведений мыслителей Центральной Азии в деле формирования у молодежи качеств идейного единства и интеграции.

Abstract

This article analyzes from a philosophical point of view the role of musical heritage in the integrative improvement of the qualities of ideological unity among young people. At the same time, ways of rationally using musical works of Central Asian thinkers in the formation of qualities of ideological unity and integration in young people will be shown.

Kalit so'zlar: g'oyaviy birdamlik, musiqiy meros, integratsiya, milliy musiqa, fazilat, yaxshilik, ezgulik, hamjihatlik, vatanparvarlik, millatparvarlik dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

Ключевые слова: идейное единство, музыкальное наследие, интеграция, национальная музыка, добродетель, благость, милосердие, солидарность, патриотизм, националистическое мировоззрение, духовно-нравственное воспитание.

Key words: ideological unity, musical heritage, integration, national music, virtue, kindness, mercy, solidarity, patriotism, nationalistic worldview, spiritual and moral education.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy va g'oyaviy tarbiyasi, millatparvar, yurtiga sadoqatli shaxslar qilib tarbiyalash, shuningdek, ularning g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada ma'naviy meros, shu jumladan, musiqiy meros alohida o'rin tutadi. Maqolada aynan shu masalalarga e'tibor qaratiladi. Ya'ni, yoshlarning g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rnini hamda yoshlar ma'naviy madaniyati komponentlari tizimida ijodiy tafakkurni rivojlantirish bosqichlarini milliy-madaniy qadriyatlarga moslashtirish jarayonini tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zlarining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida musiqiy meros xalq ruhiyatining, milliy g'oyaning ifodasi sifatida xizmat qilishini ta'kidlab, - "Musika sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi... Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda"[1, 140-141], - degan fikrni bildirgan edilar.

Shubha yo'q-ki, o'zbek xalqi o'zining buyuk davlatchilik tarixi, urf-odat va an'analari, dunyo tamadduni rivojiga qo'shgan hissasi, jahon hamjamiyati haqli ravishda e'tirof etayotgan milliy xususiyatlari bilan ana shunday millatlar qatoriga kiradi. Bu borada musiqa va musiqiy merosning alohida o'rnini bor.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham meros haqida qisqacha qilib unga "ajdodlardan qolib kelayotgan o'tmish qoldig'i, ilmiy, adabiy, madaniy boylikni ham bildiradi", - deb jo'ngina ta'rif beriladi[2,49-20].

Bugungi kunda tarixiy-madaniy merosga, shu jumladan, musiqiy merosga bo'lgan qiziqish tobora oshib bormoqda. Bu borada olib borilayotgan ilmiy ijodiy izlanishlar davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, musiqiy merosning avlodlararo aloqalarni asrashdagi funksional xususiyati haqida yozilayotgan risolalar, kitoblar va monografiyalar fikrimizning dalilidir. Biroq diqqat bilan qarasa, tarixiy-madaniy meros shunchaki o'tmishga oid voqelik, boylik sifatida yondashish mavjudligi ko'zga tashlanadi. Birorta ilmiy asarda tarixiy-madaniy merosning ekzistensial ontologik va ijtimoiy funksional xususiyatlari ochib berilmaydi.

Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy esa musiqaning muboh (ruxsat etilganligi) hamda harom yoki haloligini ta'kidlagani holda uni inson ko'ngil va qalbini forig'lash xususiyatiga ega ekanligini qayd etadi. Bu borada alloma, "Kimning ko'nglida Xudoi taoloning do'stlig'i va muhabbati o'ti g'olibroq bo'lsa, simo' (musiqi – O.R.) ul kishiga muhimroqdur, muhabbat o'tini tez qilur. Va kishiki, aning ko'nglida Haq taolo do'stligi botildur, simo' anga zahri qotildur"[3,121-122]. – deydi.

Musiqi va qo'shiq tinglashni joiz, deb biluvchilar orasida Hujjatul-islom Imom G'azzoliy, Shahobiddin Suhravardiy, Hujviri kabi islom olamining darg'alari va qancha boshqa tasavvuf namoyondalari ham bor. Imom G'azzoliyning "Mukoshafatul-qulub" asarida shunday deyiladi: "Musiqi tinglash, duf (nog'ora) ishlatish haqidagi nasslar, g'ino, raqs, duf chalish, qilich va nayzalarni o'ynatish, shuningdek, ushbularni tomosha qilish hamda tinglashning joizligiga ishora qiladi.

Musiqiy merosda inson go'zalligining estetik tasviri, musiqaning inson estetik olamiga ta'sir xususiyatlari, uning estetik tarbiyadagi ahamiyati, musiqaning diniy-falsafiy va axloqiy-estetik mohiyatiga doir ilmiy va diniy manbalar bizgacha etib kelgan. Jumladan, islom dinida, xususan tasavvuf tariqatlarida musiqaning forig'lash va qiziqtirish kabi xususiyatlaridan keng foydalanilganligini qayd etish lozim. Ayniqsa, bu holat Mavlaviya tariqatining zikr marosimida o'ziga xos tarzda ko'zga tashlanishini sharqshunos olim YE.E.Bertels alohida ta'kidlab o'tgan edi[4,51].

Abu Nasr al-Forobiyning "Kitab al-musiqiy al-Kabir" – (Musiqi haqida katta kitob) risolasida musiqaning tarixiy ildizlari haqida muhim fikrlar bildirilgan. Unda musiqaning she'r san'ati bilan aloqadorligi, voqelikni badiiy obrazlar asosida tasvirlashda musiqaning bevosita ishtiroki masalalari bayon etilgan[5,469].

Qozog'istonda Forobiy ilmiy merosini o'rganishga katta e'tibor beriladi. Uning musiqiy-nazariy merosini tadqiq etish borasida juda katta muvaffaqiyatli ishlar qilingan. A.K.Kubesovning "Matematicheskoye naslediye Al-Farabi" asari shunday ishlar jumlasidandir. Unda Forobiyning musiqashunoslik bo'yicha yozgan risolalari haqida, xususan, "Katta musiqi kitobi" qo'lyozma matnlari, nashri va ayrim qismlarining tarjimalari haqida bibliografik ma'lumotlar beriladi va tahlil qilinadi. Audanbek Kubesovning matematik tahlilga bag'ishlangan asari va Saida Daukeyevaning "Filosofiya muziki Abu Nasr Muxammada al-Farabi" nomli yirik tadqiqoti X-XI asrlar Sharq musiqashunosligining yozma yodgorliklarini o'rganishda musiqashunoslar, tarixchilar va tilshunoslar uchun ham katta qiymatga ega manbalardandir.

Ibn Sino musiqi to'g'risida beshta asar yozgan bo'lib, ularning yirigi "Musiqi ilmi to'plamlari" hisoblanadi. U "Donishnoma" asarida musiqi va tovushning ohanglar harakati va musiqiy asboblarning ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tgan. "Musiqi ilmi to'plamlari" asarida musiqi va tovushning inson hissiyotiga ta'siri, yoqimli va yoqimsiz musiqi, musiqi ta'sirida lazzat olish yoki nafratning paydo bo'lishi va ularning inson hayoti uchun muhimligi to'g'risida fikr bildiradi[6,46].

Ibn Sino esa bu borada shunday deydi: Musiqi matematik fan bo'lib, kuy yaratishni o'rganish maqsadida nag'malarning yoqimlilik va yoqimsizlik jihatidan holatlarini hamda ular (nag'malar) orasidan o'tadigan zamon miqdorini o'rganadi. Musiqi ilmi ikki masalani qamrab olgan. Ulardan biri nag'malarning holatlari haqidagi bahs bo'lib, ta'lif (moslashuv) deyiladi, ikkinchisi – nag'malar orasidan o'tadigan zamon miqdori haqidagi bahs. U iyqo (ritm) ilmi deb ataladi.

Kaykovus ham inson ruhiy tarbiyasida musiqaning o'rnini yuqori baholaydi. Uning fikricha, musiqiy soz torlaridan yangraydigan ohanglar inson tabiatiga mos ravishda tanlangan va yaratilgan. Shuningdek, Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida inson va uning kamol topishi, ta'lim-tarbiya muammolariga bo'lgan qarashlarini bayon etib, tarbiyadan maqsad – insonni hozirgi zamon va kelajak uchun yaroqli shaxslar qilib etishtirishdir, - deb ta'kidlaydi.

FALSAFA

Markaziy Osiyo allomalari orasida Kaykovus singari san'atkorlarni ma'naviyat tarqatuvchilari sifatida ijtimoiy hayotdagi o'rni juda obyektiv tahlil etib, musiqiy-didaktik meros qoldirgan mutafakkir alloma, buyuk o'zbek adibi, san'at shaydosi Alisher Navoiyning musiqiy qarashlari asosan uning "Mahbub ul-qulub", "Majolis ul-nafois" asarlarida mujassam bo'lgan. Jumladan, "Mahbub ul-qulub" nasriy risolasi alloma musiqaning ilmiyligini e'tirof etgan holda uni ko'proq ma'naviy ozuqa beruvchi san'at turi sifatida didaktik tarzda talqin qildi[7,111].

Musiqiy merosimizning yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida o'rni masalalarini nazariy tahlil qilgan mamlakatimizning bir qator olimlari F.Asqar, I.A.G'aniyeva, G.A.Tursunova, Z.Oripov, Sh.I.Ayxodjayevalarning tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Sharq olimlari musiqani dastlab falsafa ilmlaridan biri, deb hisoblaganlar va qomusiy asarlar tarkibiga kiritganlar. Bunda ular shubhasiz, musiqaning badiiy-estetik kuchi va ijtimoiy tarbiyaviy rolini hisobga olgan edilar[8,19].

MUHOKAMA

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati kabi musiqiy meros xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi.

Markaziy Osiyo musiqa madaniyatiga oid asarlar mazmuniga badiiy g'oyalar, jumladan, birdamlik g'oyalari fazilatlarini singdirilgan holda berilib, obrazlarning o'zaro munosabatlari, ya'ni taqqoslash, to'qnashuv, rivojlanish jarayonida shakllangan. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqiy meros turli epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lgan.

Musiqiy meros integratsiyasi shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qadriyatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda mazlum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalari to'g'risidagi umumlashmalar ifoda etiladi. Musiqiy meros har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari bilan mushtarakdir. Musiqiy meros, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirishda, g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda vosita sifatidagi roli juda muhimdir.

XX-XXI asr boshigacha bo'lgan davrda musiqiy madaniyatda beqiyos rivojlanish, katta yutuqlar, misli ko'rilmagan yuksalish davri bo'ldi. Turli xalqlarning har bir tarixiy bosqichida ajdodlari tomonidan yaratilgan va vorislik asosida etib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar milliy qadriyat sifatida e'zozlanib keldi. Milliy musiqa madaniyatida milliy qadriyatga aylangan asarlar talaygina. Ularni afsona va rivoyatlar orqali ham bilish mumkin. Afsonalardagi payg'ambarlarning so'z bilan etkazish qiyin bo'lgan tuyg'ularini musiqa orqali ifodalash imkoniyatlari namoyon bo'ladi[9,48].

Bugungi globallashtirish jarayonida turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchaymoqda. Bunday sharoitda milliy musiqiy merosni yoshlar ongiga integratsiya qilish orqali g'oyaviy birdamlikni fazilatlarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Ta'lim tizimida, ya'ni o'rta maktab va oliy o'quv yurtlarida milliy musiqiy meros haqida ma'lumotlar berish natijasida yoshlarda g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish mumkin.

Yoshlar ishtirokida an'anaviy musiqa festivallari, musiqiy va maqom kechalari yoshlarda g'oyaviy birdamlik fazilatlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy musiqiy kontentni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyish ham yoshlarda g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarda g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda milliy musiqiy merosni zamonaviy musiqa bilan uyg'unlashtirish ham katta ahamiyatga ega.

NATIJALAR

Musiqiy merosimiz bo'lgan baxshichilik, maqom san'ati, an'anaviy xalq qo'shiqlari kabi janrlar orqali millatning qahramonliklari, orzu-umidlari va ezgu g'oyalari avloddan-avlodga etkazib kelinmoqda. Bunday musiqiy an'analar yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiradi, ularni o'zlikni anglashga undaydi. Ayniqsa, musiqiy asarlardagi ma'naviy-axloqiy g'oyalar yoshlarning ongiga ta'sir qilib, jamiyatda birdamlik va o'zaro hurmat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Musiqiy meros o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga etib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda se zilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi.

So'nggi 130 yil ichida musiqiy merosimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko'rinishlarga to'la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu holatlarga qaramay, o'tgan davrlar mobaynida ilm fan, san'at, jumladan, musiqa sohasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini e'tirof etish zarur. Yaqqol misol sifatida musiqa ijodiyoti, ijrochiligi, musiqa ilmi, ta'limi singari sohalarni olish mumkin.

Forobiy o'zining "Katta musiqa kitobi"da musiqaga keng ta'rif berib, uning asosiy tushunchalarini hamda tarkib topadigan elementlarni ko'rsatib beradi. Uni jiddiy o'rganish hozirgi zamon milliy o'zbek musiqasining ustuvor asosi – maqomlar va Sharq musiqasiga doir muammolarini to'g'ri hal qilishdaqimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Forobiyning ta'kidlashicha, musiqa va unga tegishli narsalarning ilmiy jihatdan o'rganilishiga "Nazariy musiqa san'ati deyiladi".

Forobiy "Musiqa haqida katta kitob"ida musiqaning inson ruhiyatiga va ruhiy olamidagi ulkan ahamiyati haqida yozgan. Jumladan, musiqa kishilarni xursand qilishi, quvontirishi, tinchlantirishi, o'ylantirib qo'yishi, xotirjamlik baxsh etishi, sergaklantirishi va insonlarning g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida o'z fikrini bayon etgan. Forobiy musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri, inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyati haqida fikr yuritib, "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida" degan mashhur asarida, - "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi"[10,272], - deb ta'kidlaydi.

XULOSA

Integraçiya jarayonida musiqiy merosni yo'qotmaslik, balki uni qayta tiklash va yangi shakllarda rivojlantirish imkoniyati bor. Chunki, musiqiy meros faqatgina san'at emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va g'oyaviy poydevoridir. Uni yoshlar ongiga singdirish orqali jamiyatda g'oyaviy birdamlikni mustahkamlash mumkin. Musiqiy an'analar orqali yoshlarda milliy o'zlikni anglash, o'z millatiga bo'lgan muhabbat va sadoqatni oshirish, hamda global madaniyat ta'siriga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish mumkin. Albatta, yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integraçiyasida musiqiy merosning o'rni masalasi bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo mutaffakirlari va olimlarining ilmiy merosida musiqa ilmi jamiyat va uning a'zolari ijtimoiy tafakkurida katta o'zgarishlarni amalga oshiruvchi omil sifatida talqin etiladi. D.Jalolovning fikricha, keyingi avlodlarga musiqiy meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba'zilar qadimdan amal qiladi, bu – namoyish qilish, xalq og'zaki ijodi, folklor, dostonchilik, maqom san'ati kabilardir[11]. Demak, yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda musiqiy merosning o'rni va roli muhimdir. Chunki ajdodlarimizdan bizga ma'naviy meros bo'lib qolgan asarlarda g'oyaviy birdamlik fazilatlarini aks ettiruvchi: yaxshilik, ezigulik, hamjixatlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi tushunchalar o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008. –Б 140-141.
2. Норкулов Д.Т. Қорабоева Д.Д. Тарихий-маданий мерос ва миллий ўзликни англаш. –Тошкент: Fan va texnologiya nashriyot-matbaa uyi. 2022. –Б. 19-20
3. Абу Хомид Ғаззолий. Кимёи саодат. Туркий. 2 томлик. –Тошкент: Адолат. 2005. 2-том. –Б. 121-122.
4. Шокиров Т.М. Ўзбек миллий маданиятини ривожлантиришда ворисийлик: ижтимоий-фалсафий таҳлил. (Мусикий мерос мисолида). –Андижон. Автореферат. 2023 йил. –Б. 51
5. Абу Наср ибн Муҳаммад аль-Фараби. Большая книга о музыке. Перевод с араб. Даукеевой С. –Москва: Наука. 2007. – С. 469
6. Юлдашева Ф.Х. Краткий курс лекций по этике и эстетике. –Андижон. 2016. –С. 46
7. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб. –Тошкент: Ғофур Ғулом нашриёти. 1983. –Б. 111.
8. Исҳоқ Ражабов. Мақомлар. –Тошкент. Санъат нашриёти. 2022. –Б. 19
9. Кароматов Ф. Музыка народов Ср. Азии в мифах и легендах. Санъат № 2 / 99. –С. 48
10. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: Янги аср авлоди. 2018. –Б. 272